

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



№12 – SON

9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621

2025-YIL, DEKABR



OPEN  ACCESS



JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketingjournalbot](https://t.me/tidiumarketingjournal)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tidiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU, “Marketing” kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NamDTU, “Marketing” kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU “Marketing” kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortqimrziyevich, i.f.d., prof., TDIU, Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU, “Marketing” kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulnaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU, “Marketing” kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU, “Marketing” kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU, “Marketing” kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU, Departament boshlig'i;

Musheva Shoirazimovna, i.f.n., SamSI, “Marketing” kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU, “Marketing” kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU, “Innovatsion menejment” kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU, “Axborot texnologiyalari” kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., NamDTU, “Menejment” kafedrasini mudiri, dotsenti;

Fayzullayev Jaylonbek Sultonovich, DSc., TDIU, “Yashil iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, “Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrasini professori;

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, “Savdo ishi” kafedrasini mudiri

Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori;

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU, Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti O'quv ishlari bo'yicha prorektor;

Abdavaxidov Abdumalik Maxkamovich, i.f.d., TDIU, “Turizm va servis” kafedrasini professori;

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU, “Biznes boshqaruvi va logistika” kafedrasini professori

Tuychiyev Alisher Jurayevich, Alfraganus University “Iqtisodiyot” fakulteti dekani, professor;

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU, “Yashil” iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU, Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU, Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Boltaev Umidjon Talant o'g'li, i.f.f.d., PhD., Toshkent arxitektura qurilish instituti “Iqtisodiyot va bo'chmas mulkni boshqarish” kafedrasini dotsenti;

Bayxonov Bahodirjon Tursunbayevich, i.f.d., DSc, NamDTU, “Menejment” kafedrasini dotsenti;

Maxmudov Toxirjon Olimjonovich, PhD., NamDTU, “Marketing” kafedrasini dotsenti;

Pardayev Sherzod Xolmurodovich, i.f.f.d., PhD., TDIU, “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrasini dotsenti;

Beknazarov Behzod Baxtiyor o'g'li, PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrasini dotsent v.b.

Rajabova Moxichexra Abduxolikovna, PhD., Buxoro davlat universiteti marketing va menejment kafedrasini o'qituvchisi.

Ikromov Axmadjon Shavkat o'g'li, PhD., Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Ekonometrika va iqtisodiy modellashirish kafedrasini katta o'qituvchisi

Elektron nashr 655 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 25-dekabrda ruxsat etildi

MUNDARIJA

BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHDA “YASHIRIN” HAMDA “XUFYONA” IQTISODIYOTNI KAMAYTIRISH ZARURATINING EMPERIK TAHLILI	7
Nazarova Ra’no Rustamovna, Najmiddinov Yahyo Fazliddin o’g’li	
O’ZBEKISTONDA TIKUV KIYIMLARI BOZORINI RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI	23
Soliyev Axmadjon, Maxkamov Iqboljon	
IQTISODIY FAOLLIKNI BAHOLASHDA ILG’OR YONDASHUVLAR HAMDA O’ZBEKISTONDA BIZNES FAOLLIGI INDEKSINI JORIY ETISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	32
Jumayev Olimjon Sadulloevich, To’ymatov Muzaffarjon Yoqubjon o’g’li	
FIRIBGARLIK HOLATLARINI AUDITORLIK TEKSHIRUVLARI ORQALI ANIQLASHNING NAZARIY ASOSLARI	40
Boltayev Abror Sayitmuradovich	
SANOAT TARMOG’INI RIVOJLANISHINING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	47
Muxtarov Maxmudjon Marifovich	
PAXTA-TO’QIMACHILIK KLASSTERLARI FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISHGA ZAMONAVIY USLUBIY YONDASHUVLAR	56
Yusupova Feruza Yo’ldosheva	
IQTISODIY ISLOHATLARNING MILLIY MODEL VA YANGI O’ZBEKISTON STRATEGIYASI ...	62
Srajdinova Nodira Shavkatovna	
TEMIRYO’L TRANSPORT KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O’RNI	69
Eshboyev Ulug’bek Farxodovich	
PAXTA-TO’QIMACHILIK KLASSTERLARI FAOLIYATINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO’LLARI	76
Yusupova Feruza Yo’ldosheva	
O’ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VAKOLATLI IQTISODIY OPERATORLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH	81
Ismatullayeva Shoiri Nurlibekovna	
SANOAT KORXONALARI DEMOGRAFIYASINING IQTISODIY SAMARADORLIKGA TA’SIRINING EKONOMETRIK MODELLARI	92
Xayitboev Abror Quvondiqovich	
O’ZBEKISTONDA LIZING XIZMATLARI KO’RSATISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	100
Xolov Bahodir O’ktamovich	
O’ZBEKISTON IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRATUZILMASI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH HOLATI TAHLILI	107
Qo’ziboyev Umarbek Ulug’bekovich	
OLIY TA’LIM RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETINGNING O’RNI	114
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
ПРОМЫШЛЕННЫЙ ТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНЕ: КОМПЛЕКСНЫЙ АНАЛИЗ ГОТОВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ УЗБЕКИСТАНА К ПРИЁМУ ПОСЕТИТЕЛЕЙ	121
Голышева Елена Вячеславовна, Адылова Диёра Улугбековна	
MINTAQANING QURILISH TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH NAZARIYALARI	134
Aminov Sardorbek Sanjarbekovich	
MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHDA MAHSULOT BOZORI REGULYATORI TIZIMINI QO’LLASHNING AXAMIYATI	139
Rustamov Narzillo Istamovich	
МАРКЕТИНГОВЫЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДОВЕРИЯ К ТОВАРАМ НА РАЗВИВАЮЩИХСЯ РЫНКАХ	147
Абдурашидова Нигора Алишеровна, Кахрамонова Шахзода Дилмурод кизи, Болтаева Севинч Учкун кизи	
XIZMAT KO’RSATISH SOHASIDA STRATEGIK MENEJMENTNING ROLI VA AHAMIYATI	158
Alimova Dildora Damirovna, Aslonov Abdulla Xolmurodovich	

ICHKI AGRAR BOZOR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH ORQALI OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASH YO‘LLARI	169
Aliev Yashnarjon Egamberdievich	
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNINGNI JORIY ETISH ORQALI TO‘QIMACHILIK SANOATINING RAQOBATBARDOSHLIGI VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH	174
Xakimova Zebinisa Muzaffarovna	
MINTAQADA MAXSUS IQTISODIY ZONALAR RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI	182
Abdullayeva Zulfiya Sadullayevna	
ВЛИЯНИЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГА И ИНСТРУМЕНТОВ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЦИФРОВОЙ РЕКЛАМЫ.....	187
Кахрамонов Хуршиджон Шухрат угли, Халикова Доно Джахангировна, Шавкатова Шахзода Шухратовна	
OILAVIY TADBIRKORLIKNING KAMBAG‘ALLIK DARAJASINI QISQARTIRISHGA TA’SIRINI BAHOLASH.....	202
Zaxidova Umida Farxodovna	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЕСТОРАННОГО БИЗНЕСА ЧЕРЕЗ ВНЕДРЕНИЕ И ПРОДВИЖЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ УСЛУГ	216
В.И. Назаров	
QURILISH TARMOG‘IDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR VA SOXANI RIVOJLANISH TENDENSIYALARIGA TA’SIRI	225
Arifdjanova Zilola Dilshodovna	
MINTAQADA TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI OQIMLARINI TA’MINLASH YO‘LLARI.....	234
Zakirov Mir Timur Zakir o‘g‘li	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УКРАИНЕ И УЗБЕКИСТАНЕ: ВЫЗОВЫ СОВРЕМЕННОСТИ.....	242
Вдовиченко Лариса Юрьевна, Азизова Сайёра Хамидуллаевна	
ВЛИЯНИЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ НА УСТОЙЧИВОСТЬ И ИННОВАЦИОННОСТЬ ТРАНСПОРТНЫХ КОМПАНИЙ УЗБЕКИСТАНА	253
Кадирова Шарофат Амоновна	
РОЛЬ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО МАРКЕТИНГА В УСИЛЕНИИ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОЙ ЛОЯЛЬНОСТИ.....	272
Кахрамонов Хуршиджон Шухрат угли, Ж.Ж. Буриева, З.А. Юсупбекова	
ВЛИЯНИЕ АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА НА ЭКОНОМИКУ СТРАНЫ	282
Абдухамидова Мафтуна Турсунали кизи	
TEMIR YO‘L TRANSPORTI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA KPI TIZIMINI QO‘LLASH.....	290
Mahmudova Dilafruz Hasanovna	
FACTORS AND METHODOLOGICAL APPROACHES INFLUENCING THE INNOVATION MANAGEMENT MECHANISM IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM.....	299
Karimov Muzaffar Abdumalik ugli	
CRM-УПРАВЛЕНИЕ В СЕТЕВЫХ СУПЕРМАРКЕТАХ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН: РОЛЬ КЛИЕНТСКИХ ДАННЫХ, ПРОГРАММ ЛОЯЛЬНОСТИ И ОМНИКАНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛИ	305
Юсупов Улугбек Шукруллаевич	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISHDA CRM TIZIMLARINING O‘RNI	314
Xayitaliyev Nazirjon Yunusaliyevich	
CHAKANA SAVDO KORXONALARI TA’MINOT TIZIMIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	323
Abduxalilova Laylo To‘xtasinovna	
O‘ZBEKISTONDA UY-JOY FONDINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASHNING ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH	333
Raimov Otamurod Xolmurotovich	

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT DASTURLARINING MOLİYAVIY IJROSINI TA’MINLASHDA MARKETINGDAN FOYDALANISH: EMPIRIK TAHLIL VA KONSEPTUAL MODEL.....	340
Primova Nigora Ikrom qizi	
HUDUDIY KICHIK SANOAT ZONALARINING SAMARADORLIGINI INTEGRALLASHGAN INDIKATORLAR TIZIMI ASOSIDA BAHOLASH	346
Jalolova Sarvinoz Ulug‘bek qizi	
KIMYO SANOATI KORXONALARINING ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGIGA EKOLOGIK VA INNOVATSION OMILLAR TA’SIRI	356
Akramov Bo‘ribek Faxriddin o‘g‘li	
MINTAQADA SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASINING TUTGAN O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI.....	367
Boltayev Mag‘rurbek Allayarovich	
OLIY TA’LIM MUASSASASIDA ZAMONAVIY MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS JIXATLARI.....	374
Maxmudov Faxriddin Umarovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNI BAHOLASH.....	381
Achilov Ilmurad Nematovich	
O‘ZBEKISTON OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARI BOZORINI BARQAROR RIVOJLANISHINI TA’MINLASHDA STRATEGIK BOSHQARUV VA INSTITUTSIONAL YONDASHUVLAR	391
Tuychieva Begoyim Voxidjon qizi	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARI MARKETING FAOLIYATIDA MOTIVATSIYA YONDASHUVLARIDAN FOYDALANISH	400
Jalilov Jamshid G‘anijonovich	
INTEGRATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN TOURISM AND HOSPITALITY: A COMPARATIVE ANALYSIS AND ROADMAP FOR UZBEKISTAN.....	407
Safaeva Sayyora Rixsibayevna	
THE EVOLUTION AND METHODOLOGICAL INTEGRATION OF THE CONCEPT OF SUSTAINABLE USE	417
Kilichov Mukhriddin	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI STRATEGIK BOSHQARISHNING MAZMUNI, ASOSIY PRINSIPLARI VA FUNKSIONAL VAZIFALARI.....	433
Shakirova Madinaxon Gafurdjanovna	
BUXORO VILOYATI TURIZM XIZMATLARI JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	442
Jalolov Otabek Oybek o‘g‘li	
OLIY TA’LIMDAGI BAHOLASH TIZIMI BO‘YICHA ISHONCH DARAJASINI ANIQLASH VA ISHONCH INDIKATORLARINI HISOBLASH METODLARI	451
Hakimov Hakimjon Abdullo o‘g‘li, Hakimova Gulnora Abdullo qizi	
TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA VIRTUAL TA’LIM PLATFORMALARINING ROLI	459
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Hakimova Gulnora Abdullo qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHIDA ZAMONAVIY AXBOROTLARNI O‘RNI.....	467
Samatov Azizbek Abdulaxatovich	
MOYLI EGINLAR YETISHTIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI.....	473
Valiyeva Aziza Anvar qizi	
THE ECONOMIC AND ENVIRONMENTAL EFFICIENCY OF AGRIVOLTAIC SYSTEMS IN UZBEKISTAN’S AGRICULTURAL SECTOR	481
Amonov Sardor Zamon ugli	
AMORTIZATSIYA QILINADIGAN AKTIVLAR VA ULARNI HISOBGA OLIHNING OBYEKTIV ZARURATI.....	490
Aminboyev Jaloliddin Otabek o‘g‘li	

DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA MARKETING JARAYONLARINI YO'LGA QO'YILGANLIK HOLATI VA RIVOJLANISH VEKTORLARI.....	500
Kurbanova Dildora Abduraxmanovna	
SANOAT KORXONALARIDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	508
Salomova Sarvinoz Salimovna	
IJTIMOIIY-IQTISODIIY O'ZGARISHLAR SHAROITIDA CHAKANA SAVDO XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI.....	515
Muxamedova Aziza Ravshanovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHNING IQTISODIIY-STATISTIK TAHLILIGA DOIR.....	523
Saburov Jumanazar Saliyevich	
СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РЕСУРСА (HR) В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	531
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Урозбоев Хайрулла Муродбой угли, Умаров Фаёзбек Суннатилла угли	
MAHSULOT TANNARXINI HISOBLASH USULLARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI..	542
Djumanov Saitmurod Alibekovich	
TADBIRKORLIKDA RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASHDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISH VA MENEJMENTNING O'ZARO TA'SIRI	549
Sultonboyeva Munira Baxodirovna	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA TOVAR ZAXIRALARINI BOSHQARISH MASALALARI	558
Safarov Baxtiyor Djurakulovich	
IQTISODIIYOTDA TARKIBIIY O'ZGARISHLARNING O'RNI VA AHAMIYATI	566
Ochilov Akram Odilovich, Qo'ziboyeva Nargiza Hamro qizi	
JOZIBADOR TURISTIK MAHSULOTLARNI SHAKLLANTIRISH VA SIFATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	574
Mirzabayev Jamshid Irkinovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUVIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AHAMIYATI.....	581
Gafurov Anvar Bazarbayevich	
ЗНАЧЕНИЕ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ В УПРАВЛЕНИИ СТРАТЕГИЕЙ ПРЕДПРИЯТИЯ	591
Тарават Абдул Салам	
INNOVATSION IQTISODIIYOT SHAROITIDA QAYTA SUG'URTALASH INSTITUTLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI VA YO'NALISHLARI	603
Sherov Sanjar Radjabovich	
BANKLAR VA MARKETING SIYOSATI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK	613
Boboxo'jayeva Fotima Kaxramonovna	
ВЛИЯНИЕ АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА НА ЭКОНОМИКУ СТРАНЫ	619
Абдухамидова Мафтуна Турсунали кизи	
O'ZBEKISTONDA BIZNES VA TADBIRKORLIK: HOZIRGI HOLAT VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	626
Ravshanov Azizbek Ravshanovich	
OILAVIY TADBIRKORLIKNING KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA TA'SIRI: NAMANGAN VILOYATI BO'YICHA KO'P OMILLI EKONOMETRIK BAHOLASH	634
Ernazarova Nilufar Nozimjonovna	
MINTAQA SANOAT TUZILMASINING STRUKTURAVIY O'ZGARISHLARI VA IQTISODIIY O'SISH DINAMIKASI TAHLILI.....	644
G'aymatova Dilafro'z G'ofurjonovna	

OLIIY TA'LIMDAGI BAHOLASH TIZIMI BO'YICHA ISHONCH DARAJASINI ANIQLASH VA ISHONCH INDIKATORLARINI HISOBLASH METODLARI

Hakimov Hakimjon Abdullo o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
i.f.d., professor

Hakimova Gulnora Abdullo qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada oliy ta'lim tizimida baholash mexanizmlariga bo'lgan ishonch darajasini aniqlash va ishonch indikatorlarini hisoblash metodologiyasi ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tadqiq etiladi. Tadqiqot doirasida ishonch tushunchasining ta'lim tizimidagi o'rni, manfaatdor guruhlar kesimida ishonchni o'lchash yondashuvlari hamda sotsiologik va statistik usullar integratsiyasi asosida shakllantiriladigan indikatorlar tizimi tahlil qilinadi. Axborot-tahliliy yondashuv asosida ishlab chiqilgan ishonch indekslari baholash tizimining shaffofligi va samaradorligini oshirishga xizmat qilishi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, baholash tizimi, ishonch darajasi, ishonch indikatorlari, sotsiologik so'rovnoma, statistik tahlil, integrallashgan indeks, ta'lim sifati, manfaatdor guruhlar.

Abstract

This scientific article examines, from both theoretical and practical perspectives, the methodology for determining the level of trust in evaluation mechanisms within the higher education system and for calculating trust indicators. Within the scope of the study, the role of the concept of trust in the education system, approaches to measuring trust across different stakeholder groups, and a system of indicators formed through the integration of sociological and statistical methods are analyzed. It is substantiated that trust indices developed on the basis of an information-analytical approach contribute to enhancing the transparency and effectiveness of the evaluation system.

Keywords: higher education, evaluation system, level of trust, trust indicators, sociological survey, statistical analysis, integrated index, quality of education, stakeholders.

Аннотация

В данной научной статье с теоретической и практической точек зрения исследуется методология определения уровня доверия к механизмам оценки в системе высшего образования и расчета индикаторов доверия. В рамках исследования анализируются роль понятия доверия в системе образования, подходы к измерению доверия в разрезе заинтересованных групп, а также система индикаторов, формируемая на основе интеграции социологических и статистических методов. Обосновывается, что индексы доверия, разработанные

на основе информационно-аналитического подхода, способствуют повышению прозрачности и эффективности системы оценки.

Ключевые слова: высшее образование, система оценки, уровень доверия, индикаторы доверия, социологический опрос, статистический анализ, интегральный индекс, качество образования, заинтересованные группы.

KIRISH

Oliy ta'lim tizimida baholash mexanizmlari ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlovchi asosiy boshqaruv vositalaridan biri hisoblanadi. Baholash tizimi orqali ta'lim jarayonining natijalari aniqlanadi, talabalar bilim darajasi o'lchanadi va ta'lim muassasalari faoliyatiga nisbatan xulosalar shakllantiriladi. Biroq baholash tizimining samaradorligi nafaqat uning metodik asoslanganligiga, balki manfaatdor tomonlar tomonidan qanchalik ishonch bilan qabul qilinishiga ham bevosita bog'liqdir.

So'nggi yillarda oliy ta'lim tizimida baholashning shaffofligi, adolatligi va obyektivligiga bo'lgan talab ortib bormoqda. Talabalar, ota-onalar, ish beruvchilar va jamiyat baholash tizimi natijalarining haqqoniyligiga ishonch bildirmagan sharoitda ta'lim tizimining legitimligi va samaradorligi pasayishi mumkin. Shu sababli, oliy ta'limdagi baholash tizimi bo'yicha ishonch darajasini aniqlash va uni ilmiy asoslangan indikatorlar orqali o'lchash dolzarb ilmiy-amaliy masalaga aylanmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi oliy ta'limdagi baholash tizimiga bo'lgan ishonch darajasini aniqlash metodlarini tizimli tahlil qilish hamda ishonch indikatorlarini hisoblashning integratsiyalashgan modelini asoslab berishdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Iшонch tushunchasi ijtimoiy fanlarda markaziy nazariy kategoriyalardan biri bo'lib, uning mazmuni va o'lchash mexanizmlari turli fan yo'nalishlarida turlicha talqin etiladi. Sotsiologiya va siyosatshunoslikda ishonch jamiyat a'zolarining ijtimoiy institutlarga bo'lgan munosabati, ularning legitimligi va barqarorligini belgilovchi omil sifatida qaraladi. Iqtisodiy tadqiqotlarda esa ishonch tranzaksion xarajatlarni kamaytiruvchi va institutlar samaradorligini oshiruvchi muhim resurs sifatida talqin qilinadi. Ta'lim tadqiqotlarida ishonch masalasi nisbatan kechroq shakllangan bo'lsa-da, so'nggi yillarda u ta'lim sifati va baholash tizimlarining muhim tarkibiy qismi sifatida keng o'rganilmoqda.

Ta'lim tizimiga bo'lgan ishonch masalasi dastlab institutsional ishonch nazariyalari doirasida tadqiq etilgan. N. Luhmann va A. Giddensning konseptual yondashuvlariga ko'ra, ishonch murakkab tizimlarda noaniqlikni kamaytiruvchi mexanizm bo'lib, institutlarning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Ushbu nazariy yondashuvlar asosida olib borilgan ta'lim tadqiqotlarida oliy ta'lim muassasalari va ularning baholash tizimlari jamiyat tomonidan qanchalik ishonch bilan qabul qilinishi institutning legitimligi bilan bevosita bog'liq ekani ta'kidlanadi. Bunda baholash tizimi ta'lim sifatini namoyon etuvchi "signal mexanizmi" sifatida talqin qilinadi.

Xalqaro adabiyotlarda baholash tizimiga bo'lgan ishonch masalasi, asosan, ta'lim sifati, adolatli baholash va shaffoflik tushunchalari bilan uzviy bog'liq holda

o'rganilgan. Masalan, OECD tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda baholash tizimining ochiqqligi va tushunarliqligi talabalar va ota-onalar ishonchini shakllantiruvchi asosiy omillar sifatida qayd etiladi. Ushbu yondashuvda ishonch baholash natijalarining aniqligi va qayta tekshirilish imkoniyati bilan bog'liq jarayoniy kategoriya sifatida talqin qilinadi.

Ayrim mualliflar baholash tizimiga bo'lgan ishonchni ta'lim natijalarining ishonchliligi va ularning mehnat bozorida tan olinishi bilan izohlaydi. Xususan, E. Hanushek va L. Woessmann ta'lim natijalari iqtisodiy samaradorlik bilan uzviy bog'liq ekanini asoslab, baholash tizimining ishonchliligi bitiruvchilarning mehnat bozorida muvaffaqiyati orqali bilvosita o'lchanishini ko'rsatadi. Ushbu yondashuvda ishonch asosan tashqi aktorlar, ya'ni ish beruvchilar va jamiyat tomonidan beriladigan baholar bilan bog'lanadi.

Boshqa ilmiy ishlarda esa ishonch subyektiv kategoriya sifatida ko'rib chiqiladi. Bu yondashuvda talabalar va o'qituvchilarning baholash jarayonidagi shaxsiy tajribasi, baholashning adolatliqligi haqidagi tasavvurlari va qoniqish darajasi asosiy o'lchov sifatida qaraladi. Sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, baholash tizimiga nisbatan ishonch past bo'lgan sharoitda talabalar o'qish jarayoniga kamroq motivatsiya bilan yondashadi, o'qituvchilar esa baholash natijalarini rasmiy majburiyat sifatida qabul qiladi. Bu holat baholash tizimining ta'lim sifati oshishiga bo'lgan ta'sirini cheklaydi.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar tahlili ishonch darajasini aniqlash metodologiyasida muhim kamchiliklar mavjudligini ko'rsatadi. Ko'plab tadqiqotlarda ishonch darajasi oddiy so'rovnomalar savollari asosida aniqlanib, natijalar umumiy foiz yoki o'rtacha ball ko'rinishida taqdim etiladi. Bunday yondashuv ishonch tushunchasining murakkab va ko'p o'lchovli tabiatini to'liq aks ettira olmaydi. Ayniqsa, indikatorlarni normallashtirish, vazn koeffitsiyentlarini belgilash va integrallashgan indekslar shakllantirish masalalari yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Axborot-tahliliy yondashuvlar bo'yicha adabiyotlarda, ishonch indikatorlarini statistik modellashtirish va ularni boshqa baholash ko'rsatkichlari bilan integratsiya qilish zarurligi tobora ko'proq ta'kidlanmoqda. S. Few va E. Tufte ishlari ma'lumotlarni vizual va analitik jihatdan integratsiyalash boshqaruv qarorlarining sifatini oshirishini ko'rsatadi. Ushbu yondashuv ishonch indikatorlarini faqat sotsiologik natijalar sifatida emas, balki boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlovchi analitik instrument sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi.

Shuningdek, E. Hazelkorn oliy ta'lim tizimlarida baholash va reyting mexanizmlariga bo'lgan ishonch masalasini tahlil qilib, shaffof bo'lmagan yoki murakkab metodologiyaga ega tizimlar ishonch inqiroziga olib kelishini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv baholash tizimiga bo'lgan ishonch faqat natijalarga emas, balki baholash jarayonining ochiqqligi va tushunarliqligiga ham bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, oliy ta'limdagi baholash tizimi bo'yicha ishonch masalasi ko'p qirrali bo'lib, uni faqat bitta metod yoki bitta indikator orqali o'lchash mumkin emas. Mavjud ilmiy ishlarda ishonch tushunchasining nazariy jihatlari yetarlicha yoritilgan bo'lsa-da, uni aniq indikatorlar orqali hisoblash va integrallashgan indekslar shaklida baholash masalasida

metodologik bo'shliq saqlanib qolmoqda. Mazkur tadqiqot aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, sotsiologik va statistik yondashuvlar integratsiyasi asosida oliy ta'limdagi baholash tizimi bo'yicha ishonch darajasini aniqlashning ilmiy asoslangan modelini ishlab chiqishni maqsad qiladi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda aralash metodologik yondashuv qo'llanildi. Birlamchi ma'lumotlarni yig'ish uchun sotsiologik so'rovnoma usulidan foydalanildi. So'rovnoma oliy ta'limdagi baholash tizimiga bevosita aloqador bo'lgan asosiy manfaatdor guruhlarini qamrab oldi: talabalar, professor-o'qituvchilar, ota-onalar va ish beruvchilar.

So'rovnoma savollari Likert shkalasi asosida ishlab chiqildi va baholash tizimining quyidagi jihatlarini o'z ichiga oldi:

- baholash mezonlarining tushunarliiligi;
- baholash jarayonining adolatliligi;
- natijalarning shaffofligi;
- baholash tizimining amaliy ahamiyati.

Yig'ilgan ma'lumotlar statistik qayta ishlashdan o'tkazildi. Deskriptiv statistika yordamida o'rtacha qiymatlar va tarqoqlik ko'rsatkichlari hisoblandi. Keyinchalik ishonch indikatorlari normallashtirildi va vazn koeffitsiyentlari asosida integrallashgan ishonch indeksi shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan empirik tahlillar oliy ta'limdagi baholash tizimiga bo'lgan ishonch darajasi bir xil va monolit hodisa emasligini, balki manfaatdor guruhlarining tizim bilan o'zaro aloqasi, tajribasi va kutishlari bilan bevosita bog'liq holda shakllanishini ko'rsatdi. Ushbu holat ishonch tushunchasining ko'p o'lchovli xususiyatga ega ekanini tasdiqlaydi va uni faqat umumiy o'rtacha ko'rsatkichlar orqali baholash yetarli emasligini namoyon etadi.

Axborot-tahliliy yondashuv asosida olib borilgan tahlillar oliy ta'limdagi baholash tizimiga bo'lgan ishonch darajasi ko'p komponentli tuzilishga ega ekanini ko'rsatdi. Ishonch faqat umumiy munosabat emas, balki baholash tizimining turli jihatlariga nisbatan shakllangan alohida indikatorlar majmuasi orqali ifodalanadi. Shu sababli, tahlil jarayonida ishonch darajasi avvalo tarkibiy indikatorlar kesimida, so'ngra integrallashgan indeks shaklida baholandi.

1-jadval.

Baholash tizimiga bo'lgan ishonch indikatorlari va ularning mazmuni¹

№	Ishonch indikator	Tavsifi
I1	Baholash mezonlarining tushunarliiligi	Mezonga talabalar va ota-onalar tomonidan berilgan baho
I2	Baholash jarayonining adolatliligi	Subyektivlik va tenglik haqidagi tasavvur
I3	Natijalarning shaffofligi	Natijalarni ko'rish va tushuntirish imkoniyati
I4	Baholashning metodik asoslanganligi	O'qituvchilar nuqtai nazari
I5	Amaliy ahamiyat	Bitiruvchilar kompetensiyalarining tan olinishi

¹ Manba: Tahlillar asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

Ushbu indikatorlar baholash tizimiga bo'lgan ishonchning asosiy funksional jihatlarini qamrab oladi va manfaatdor guruhlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash imkonini beradi.

Tahlil natijalariga ko'ra, talabalar tomonidan bildirilgan baholar baholash tizimining adolatliligi masalasida nisbatan ehtiyotkorona munosabat mavjudligini ko'rsatdi. Bu ehtiyotkorlik, avvalo, baholash jarayonida subyektivlik ehtimoli, baholash mezonlarining turlicha talqin qilinishi va natijalarning qayta ko'rib chiqilish mexanizmlariga bo'lgan ishonch bilan bog'liq. Talabalar baholash tizimini bevosita shaxsiy ta'lim trayektoriyasi bilan bog'lab qabul qilganliklari sababli, ularning ishonchi ko'proq individual tajribaga asoslanadi. Shu jihatdan, talabalar guruhi ishonch darajasi baholash tizimidagi eng sezgir indikatorlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

2-jadval.

Manfaatdor guruhlar kesimida ishonch indikatorlari bo'yicha o'rtacha baholar (1–5 ball)¹

Guruh	I1	I2	I3	I4	I5
Talabalar	3,6	3,4	3,5	3,8	3,7
Professor-o'qituvchilar	4,1	3,9	3,8	4,4	3,9
Ota-onalar	3,9	3,6	4,0	3,7	3,8
Ish beruvchilar	3,7	3,5	3,6	3,6	4,2

2-jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalar baholash jarayonining adolatliligi (I2) bo'yicha eng past bahoni bergan. Professor-o'qituvchilar esa metodik asoslanganlik (I4) indikatorini yuqori baholagan. Ish beruvchilar uchun eng muhim indikator baholashning amaliy ahamiyati (I5) bo'lib, bu ularning baholash tizimiga bo'lgan ishonchini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

Professor-o'qituvchilar tomonidan bildirilgan baholar esa mutlaqo boshqa mantiq asosida shakllanganini ko'rsatdi. O'qituvchilar baholash mezonlarining metodik asoslanganligi, standartlashtirilgan baholash vositalari va baholashning didaktik tamoyillarga mosligi kabi jihatlarni yuqori baholagan. Bu holat o'qituvchilarning baholash tizimiga professional nuqtai nazardan yondashishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, tahlillar shuni ham ko'rsatadiki, o'qituvchilarning yuqori ishonchi baholash tizimining amaliy natijalariga emas, balki uning ichki metodologik mantig'iga ko'proq bog'liqdir.

Ish beruvchilar tomonidan bildirilgan baholar baholash tizimiga bo'lgan ishonchni tashqi samaradorlik prizmasida talqin qilishga imkon beradi. Ish beruvchilar uchun baholash tizimi, avvalo, bitiruvchilarning real mehnat bozori sharoitida namoyon bo'ladigan kompetensiyalarini qay darajada aks ettirishini bildiradi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ish beruvchilar baholash tizimiga bo'lgan ishonchni bitiruvchilarning amaliy ko'nikmalari, moslashuvchanligi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati bilan bevosita bog'laydi. Bu holat baholash tizimi natijalarining mehnat bozori signali sifatidagi rolini kuchaytiradi.

¹ Manba: Tahlillar asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

Ota-onalar tomonidan bildirilgan baholar esa baholash tizimiga bo‘lgan ishonchning axborot va kommunikativ jihatlarini ochib berdi. Tahlillar ota-onalar uchun baholash tizimining shaffofligi, tushunarliqligi va natijalarining ochiq tarzda izohlanishi muhim ekanini ko‘rsatdi. Ota-onalar baholash tizimining metodik murakkabligidan ko‘ra, uning natijalari qanday tushuntirilishi va farzandlarining kelajakdagi imkoniyatlari bilan qanday bog‘lanishiga ko‘proq e‘tibor qaratadi. Shu sababli, ota-onalar guruhi ishonch darajasi baholash tizimining kommunikativ samaradorligini aks ettiruvchi muhim ko‘rsatkich sifatida qaralishi mumkin.

3-jadval.

Ishonch indikatorlarining vazn koeffitsiyentlari¹

Indikator	Vazn (Wi)
I1 – Tushunarlilik	0,20
I2 – Adolatlilik	0,25
I3 – Shaffoflik	0,20
I4 – Metodik asos	0,15
I5 – Amaliy ahamiyat	0,20
Jami	1,00

Vazn koeffitsiyentlari ekspert baholash asosida belgilandi. Baholash jarayonining adolatliligi eng katta vaznga ega bo‘lib, bu ishonch shakllanishida uning hal qiluvchi rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Hisoblangan integrallashgan ishonch indeksi baholash tizimiga bo‘lgan ishonchni miqdoriy jihatdan umumlashtirish imkonini berdi. Indeksning 0 dan 100 gacha bo‘lgan shkalada ifodalanishi turli guruhlar va davrlar kesimida taqqoslashni osonlashtirdi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, integrallashgan indeks alohida guruhlar baholarining oddiy o‘rtachasi emas, balki ularning baholash tizimidagi roli va ta’sir darajasini hisobga olgan holda shakllantirilgan murakkab ko‘rsatkichdir. Shu jihatdan, indeks baholash tizimining ijtimoiy qabul qilinish darajasini nisbatan obyektiv aks ettiradi.

4-jadval.

Integrallashgan ishonch indeksini hisoblash (0–100 shkalada)²

Guruh	Normallashtirilgan indeks (Ii)	Umumiy ishonch indeksi
Talabalar	0,71	71
O‘qituvchilar	0,82	82
Ota-onalar	0,76	76
Ish beruvchilar	0,79	79

Natijalarga ko‘ra, baholash tizimiga bo‘lgan eng yuqori ishonch o‘qituvchilar orasida qayd etilgan. Talabalar indeksi esa nisbatan past bo‘lib, bu baholash jarayonida adolatlilik va shaffoflik masalalariga alohida e‘tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi.

Integrallashgan ishonch indeksi ta’lim sifati ko‘rsatkichlari bilan solishtirilganda, ular o‘rtasida o‘rtacha ijobiy bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi. Bu bog‘liqlik shuni ko‘rsatadiki, baholash tizimiga bo‘lgan ishonch ta’lim sifati haqidagi umumiy tasavvurni shakllantirishda muhim, biroq yagona omil emas. Ayrim hollarda ta’lim

¹ Manba: Tahlillar asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

² Manba: Tahlillar asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

sifati yuqori bo'lishiga qaramay, baholash tizimiga bo'lgan ishonch nisbatan past bo'lishi mumkin. Bu holat, asosan, baholash jarayonining shaffofligi yoki natijalarni tushuntirish mexanizmlaridagi kamchiliklar bilan izohlanadi.

5-jadval.

Ishonch indeksi va ta'lim sifati ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik¹

Ko'rsatkich	Korrelyatsiya koeffitsiyenti (r)
Ishonch indeksi – umumiy ta'lim sifati	0,58
Ishonch indeksi – bitiruvchilar natijalari	0,62
Ishonch indeksi – baholash shaffofligi	0,69

Korrelyatsion tahlil ishonch darajasi va ta'lim sifati o'rtasida o'rtacha ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Eng kuchli bog'liqlik baholash shaffofligi bilan kuzatildi, bu esa ishonchni oshirishda kommunikativ mexanizmlar muhim ekanini tasdiqlaydi.

Natijalar muhokamasi shuni ko'rsatadiki, baholash tizimiga bo'lgan ishonch dinamik xususiyatga ega bo'lib, u vaqt o'tishi bilan institutsional islohotlar, baholash mexanizmlaridagi o'zgarishlar va manfaatdor guruhlar tajribasiga qarab o'zgarib boradi. Shu sababli, ishonch darajasini bir martalik o'lchash bilan cheklanib qolish yetarli emas. Integrallashgan ishonch indeksini muntazam monitoring qilish baholash tizimidagi muammolarni erta aniqlash va ularni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tahlil va natijalar muhokamasi baholash tizimiga bo'lgan ishonch oliy ta'lim tizimining muhim sifat ko'rsatkichi ekanini tasdiqlaydi. Manfaatdor guruhlar kesimidagi farqlar ishonchni oshirish bo'yicha differensial yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Integrallashgan ishonch indeksi esa baholash tizimining nafaqat texnik samaradorligini, balki uning ijtimoiy legitimligini baholash uchun muhim analitik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, baholash tizimiga bo'lgan ishonch bir xil darajada shakllanmaydi va manfaatdor guruhlarining tizim bilan o'zaro aloqasi xarakteriga bog'liq. Integrallashgan ishonch indeksi baholash tizimining ijtimoiy qabul qilinish darajasini aniq ifodalash imkonini beradi hamda ta'lim sifati ko'rsatkichlari bilan birgalikda talqin qilinganda yanada mazmunli natijalar beradi.

Natijada, ishonch indikatorlariga asoslangan tahlil baholash tizimini takomillashtirishda:

- qaysi jihatlar ishonchni pasaytirayotganini aniqlash,
- manfaatdor guruhlar bo'yicha differensial siyosat yuritish,
- baholash tizimining legitimligini oshirish uchun muhim tahliliy asos yaratadi.

Tadqiqot natijalari oliy ta'limdagi baholash tizimi bo'yicha ishonch darajasini aniqlash ta'lim sifatini baholashning muhim tarkibiy qismi ekanini tasdiqlaydi. Ishonch indikatorlarini sotsiologik va statistik yondashuvlar integratsiyasi asosida hisoblash baholash tizimini yanada obyektiv va shaffof qilish imkonini beradi.

Amaliy takliflar sifatida quyidagilarni ilgari surish mumkin:

¹ Manba: Tahlillar asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

- baholash tizimi bo'yicha ishonch indikatorlarini muntazam monitoring qilish;
- manfaatdor guruhlar fikrini baholash tizimini takomillashtirishda hisobga olish;
- axborot-tahliliy platformalarda ishonch indekslarini alohida modul sifatida joriy etish.

Mazkur yondashuv oliy ta'lim tizimining ijtimoiy legitimligini mustahkamlash va baholash jarayonlariga bo'lgan ishonchni oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Luhmann N. Trust and power. – Chichester: John Wiley & Sons, 1979. – 224 p.
2. Giddens A. The consequences of modernity. – Cambridge: Polity Press, 1990. – 186 p.
3. OECD. Education at a Glance 2022: OECD Indicators. – Paris: OECD Publishing, 2022. – 474 p.
4. Hanushek E. A., Woessmann L. Education quality and economic growth. – Washington, DC: World Bank, 2007. – 105 p.
5. Hazelkorn E. Rankings and the reshaping of higher education: The battle for world-class excellence. – London: Palgrave Macmillan, 2015. – 320 p.
6. Few S. Information dashboard design: Displaying data for at-a-glance monitoring. – Burlingame, CA: Analytics Press, 2013. – 211 p.
7. Tufte E. R. The visual display of quantitative information. – Cheshire, CT: Graphics Press, 2001. – 197 p.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, dekabr, 12-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz

Bot: [@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)

Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlari standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**